

QISHLOQ AHOLISINI ISH BILAN TA'MINLASHNING ZAMONAVIY TURLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883301>

Sultonov Sanjar Jahongir o'g'li

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslarini boshqarish kafedrasasi assistenti

Xudoyberdiyev Zuxriddin Saydullo o'g'li

4-kurs talabasi

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlatning eng asosiy vazifalari bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechimini topish, mavjud davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va aholi turmish darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ayniqsa qishloq joylardagi ishsizlik, norasmiy ish bilan bandlik va kambag'allik darajasini kamaytirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalarda xodimlarni ma'lum maqsadga undash, qiziqishini oshirish, mehnatini rag'batlantirish, uning ish bilan ta'minlanganligining barqarorligini, faoliyat olib borayotgan mehnatga yo'naltirish va undan qoniqish darajasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Tarqqiyot strategiyasi yo'nalishlarida korxonalarda xodimlar mehnatini rag'batlantirish va mehnatga haq to'lash tizimni takomillashtirish asosida aholining real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish nazarda tutilgan.

Qishloq joylarda ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha hukumatimiz tomonidan kompleks chora-tadbirlar olib borilyapti, maqsadli jumladan tarmoq va hududiy dasturlar amalga oshirilmoqda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda klasterlar va kooperatsiyalar tizimlari joriy etilmoqda. Shuning uchun birgina 2021 yilda respublika bo'yicha jami 370047 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkichning 64,3%i qishloq xududlariga to'g'ri keladi. Lekin, erishilgan ijobiy natijalar qoniqarli emas. Qishloq joylarda kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari bo'lgan norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishni ko'paytirish hamda yoshlarni zamonaviy mutaxassisliklar va kasb-hunarlariga tayyorlashni strategik yondashuvlari (yo'nalishlari) bo'yicha amaliy va ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy yo'naltirilgan raqamli bozor iqtisodiyoti talablari asosida yetarlicha olib borilmagan.

Qishloq aholisini ish bilan bandligining zamonaviy turlari, obyektiv shart-sharoitlarini o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Qishloq aholisi ish bilan bandligining oqilona, samarali innovatsion va o'zini-o'zi band qilish kabi zamonaviy turlari mavjud (1.2-rasm).



1-rasm. Aholi ish bilan bandligining zamonaviy turlari¹⁴⁹

Aholining ish bilan oqilona bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi moslikga erishishni anglatadi.

Mehnatga qobiliyatli qishloq aholisining ish bilan oqilona bandligini shakllanishi faqat mehnat bozorini samarali rivojlanishi va iqtisodiyotni barcha sektorlarida tarkibiy islohotlar o'tkazilishi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bular qishloq xo'jaligidan ortiqcha ishchi kuchining ommaviy ozod bo'lishi va ularni sanoat, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlariga va shaxsiy mehnat faoliyati sohalariga hamda shahar xalq xo'jaligiga oqib o'tishi, xodimlar zaxiralarining shakllanishi va ularni bozor mexanizmlari asosida safarbar qilinishi hamda qayta taqsimlanishi jarayonini belgilab beradi.

Samarali ish bilan bandlik jamiyat rivojining muayyan bosqichida aholi turmush tarzining mezonlari taqozo etadigan xodimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tiklab borishga qodirligini nazarda tutadi. Ish bilan bandlikni samarali tusda bo'lishi daromad keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyat bilan band bo'lishni, ishchi kuchini to'liq ish vaqtda faoliyat ko'rsatishini hamda ish o'rinlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va samaradorlik darajasi yuqori bo'lishini, shuningdek, zamonaviy texnologiya va texnikalar bilan jihozlangan ish joylarida ish bilan ta'minlanishi nazarda tutadi.


Innovatsion ish bilan bandlik. Hozirgi zamonda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning kirib bormagan sohasi qolmadi. Mazkur yuqori texnologiyalarning rivojlanishi mamlakatimizda ham axborot-kommunikatsion texnologiya (AKT)lar va dasturiy ishlanmalar ishlab chiqish bilan bog'liq ko'plab ish o'rinlarining paydo bo'lishiga, ularning asosida agrobiznesning zamonaviy turlari: agrotexnologiya;

¹⁴⁹ Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

biotexnologiya; nanotexnologiya kabi sohalarning shakllanishi va mazkur sohalarda ish bilan bandlik darajasining oshishiga olib kelmoqda.

O'zini o'zi band qilish. Mazkur guruhga ish beruvchilar va o'zini o'zi band qiluvchilarni kiritish mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ma'lakatlarda o'zini o'zi band qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ish bilan bandlik shaklining xususiyati mehnatning xodimning o'zining tashabbusiga ko'ra sarflanishini nazarda tutadi. AQShlik olim Shumpeterning turli shakldagi tadbirkorlik tashabbusining o'sishi bilan innovatsiyalarning rivojlanishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi borasidagi qarashlari mantig'iga amal qilgan holda, bizning nazarimizda, ish bilan bandlikning mazkur shakli samarali bandlik siyosati mavjud bo'lganida katta innovatsion salohiyatga ega. Mamlakatimizda o'zini o'zi band qilishning oilaviy tadbirkorlikda band bo'lish, kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanish, yakka tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlikning boshqa shakllari bilan shug'ullanish, shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida band bo'lish, zamonaviy shart-sharoitlarda ipak qurti boqish bilan shug'ullanish kabi turlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Qishloq aholisining ish bilan bandligini ta'minlanishning zamonaviy turlari faoliyat ko'rsatishiga bir qator obyektiv shart-sharoitlar bevosita ta'sir ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Qishloq aholisini ish bilan bandligining asosiy shart-sharoitlari¹⁵⁰

Qishloq joylarida aholi ish bilan bandligini ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari elementlarining o'zaro munosabatlarini o'rganish nafaqat mantiqiy-funksional, balki, eng muhimi mazkur mexanizmning asosiy xususiyatlarini to'liq ochishni ta'minlaydi.

Hududiy darajada uni rivojlanishining asosiy iqtisodiy- ijtimoiy parametrlarining muvofiqligi, xususan, ish bilan bandlik siyosati va qishloq mehnat bozorining

¹⁵⁰ Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

maqsadlari hamda ustuvor yo'nalishlari uzviy bog'liq holda muvofiqligi amalga oshirilishi kerak. Qishloqda ish bilan bandlik siyosati ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari bilan qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarda moliya-kredit, tarkibiy, investitsion va tashqi iqtisodiy siyosatning muvofiqligi nazarda tutiladi. Ushbu blokka birinchi navbatda, mahsulotlar sotib olishning tashkiliy masalalari va oziq-ovqat sohasidagi intervensiyalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi va oziq-ovqat importini tartibga solish kiradi.

Qishloq aholisining ish bilan bandligini ta'minlanishining ijtimoiy shart-sharoitlari ichida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlarini oshishi yetakchi o'rin egallaydi. Agrosanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'lamlarining kengayishi, ularning intensiv rivojlanishi, o'z vaqtida moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi qishloq xodimlarini qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni (universal ishchi va xizmatchi, agrotadbirkor, agromenejment, agromarketing va h.k.) o'zlashtirishni talab qiladi.

Demografik shart-sharoitlar ishchi kuchi taklifining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori darajadagi tug'ilish mehnat bozoriga qishloq aholisining katta oqimini yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning asosiy obyektiv iqtisodiy sharti bo'lib qishloq joylaridagi mavjud ish joylarini saqlash va ta'mirlash hamda noqishloq xo'jaligi yangi ish joylarini yaratish hisoblanadi. Bu yerda shuni e'tiborga olish lozimki, yangi ish o'rnini yaratish doimo yuqori mablag'ni talab qiladi.

Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash ishchi kuchi va ish joyiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi oqilona moslikni o'rnatishda o'zaro raqobatga tayyor erkin va teng huquqli ikki hamkorning o'zaro munosabatlarga kirishishini ko'zda tutadi. Qishloq ishchisi va uni yollashni istagan tadbirkor yoki davlat muassasasi bu bozorda bir-birlariga qarama-qarshi turadilar va shu darajada ular bir-birlariga bog'liq va bir-birlariga muhtojdirlar. Ularning o'zaro muhtojligi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zarurat nuqtai-nazaridan kelib chiqadi.

Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning hal qiluvchi obyektiv iqtisodiy shartlaridan yana biri malakali ishchi kuchiga talab bilan uning taklifi o'rtasidagi o'zaro moslikni ta'minlash hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda bunday moslik saqlanmayapti, ya'ni moslikning buzilish hollari mavjuddir. Buning asosiy sababi - malakali, bozor munosabatlari sharoitida aktiv faoliyat ko'rsata oladigan ishchi kuchining yetishmasligi va qishloq joylaridagi ishlab chiqarish sohalarida bunday malakali ishchi kuchiga katta ehtiyoj sezgan ish joylarining ko'pligidir. Bundan tashqari qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarish natijasida yuzaga keladigan agroservis, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, ayirboshlash va sotish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, qishloq mashinasozligi va qishloq qurilishi, aholiga


pullik xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalarning vujudga kelishi bilan u yerdagi ish joylarining malakali qishloq ishchilariga bo'lgan ehtiyoji yanada oshadi.

Shuningdek, ish beruvchilarni iqtisodiy rag'batlantirish (masalan: soliq va bank krediti sohasidagi imtiyozlar), moliyaviy-iqtisodiy va kredit siyosati, kapital va mehnat bozorini rivojlanishi kabilar qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning iqtisodiy shartlaridan hisoblanadi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt)ning mavjudligi mehnat bozorida ishchi kuchining sotish-sotib olishning hal qiluvchi tashkiliy-huquqiy shart-sharoiti hisoblanadi.

Mehnat shartnomasining bosh xususiyati shundan iboratki, uni tuzish albatta bo'ysunish va bog'liqlikka olib keladi, bundan tashqari vujudga kelgan huquqiy munosabatlarga ishonchlilik va uzoq muddatlilik xarakterini beradi. Qishloq ishlovchisini yollovchiga bo'ysunishiga iqtisodiy ma'noda mehnat shartnomasining asosiy alomati sifatida qaraladi. Bu bo'ysunish, qoidaga ko'ra, nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, tashkiliy - balki, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va Mehnat Kodeksining barcha talablariga javob beruvchi shakllantirilgan yuridik xarakterga ega.

Shu bilan birga qishloq aholisining ish bilan bandligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy mazmunga ega (3-rasm).



3-rasm. Qishloq aholisini ish bilan bandligining asosiy omillari¹⁵¹.

¹⁵¹ Manba: mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Bular, mazmunan ikki guruhga ajratish mumkin: ishchi kuchiga talabning oshishi; ishchi kuchi taklifi pasayishi.

Ishchi kuchiga talabning oshishini ta'minlovchi asosiy omillarga: mavjud ish joylarini ta'mirlash va ularni asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tarkibiy o'zgartirish negzida yangi ish joylarini yaratish; qayta ishlash sanoati, qishloq qurilish industriyasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalari va kvotalashtirilgan yangi ish joylarini tashkil etish; yakka tartibdagi va virtual ish o'rinlarini shakllantirish; mavjud va yangi ish o'rinlarini ta'mirlash, jihozlash va yaratishga xorij investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish kiradi.

Ishchi kuchi taklifini kamaytirishni asosiy omillari: mehnatga moddiy rag'batlantirishni oshirish; ishchi kuchini uy-joy bilan ta'minlash; ishsizlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni samarali tizimini tashkil etish; tashqi mehnat migrasiyasini samarali tashkil etish; ichki mehnat migrasiyasini tashkil etishda samarali mexanizmlardan foydalanish; ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini samaradorligini oshirish; ish bilan ta'minlovchi nodavlat notijorat tashkilotlarini samarali tashkil etish va mehnatga layoqatli aholini tabiiy va mexanik ijobiy xarakteridan iborat.

Qishloq aholisini ish bilan bandligini ta'minlashning asosiy obyektiv shart-sharoitlari va omillarini aniqlash hamda ularni majmuaviy o'rganish uchun quyidagi axborot bazasiga ega bo'lish maqsadga muvofiq .

1. Qishloq aholisining tarkibi, tuzilishi, iqtisodiy faol va faol bo'lmagan aholining dinamikasi. Bu ma'lumotlar aholining ish bilan bandligini ta'minlashni demokratik tarkibi, tuzilishi, ularning o'zgarish yo'nalishlarini, aniqlash imkoniyatini beradi. Istiqbolda kutiladigan demokratik o'zgarishlarning qamrovini aniqlashga yordam beradi.

2. Qishloq aholisi bandligining dinamikasi, mulk shakliga, iqtisodiyot tarmoqlariga, kasb-malakasiga ko'ra bandlikning tuzilishi. Bu ko'rsatkichlar mehnat bozori talab va taklifi o'zgarishining mulkiy, tarmoq va malakaviy omillarini tahlil qilish imkoniyatini beradi.

3. Qishloqdagi ishsizlikning tavsifi. Bunda ishsizlik turlari, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish imkoniyatlari tahlili muhim hisoblanadi.

4. Ishchi kuchi oqimining yo'nalishlari va ish vaqtdan foydalanish darajasi ko'rsatkichlari. Bular ko'p jihatdan mikrodarajadagi tahlilni taqozo etadi.

5. Qishloq ishchi kuchi xarajatlarining tarkibi va dinamikasi. Mazkur ko'rsatkichlarning aniqlanishi va tahlili qishloq ishchi kuchi qiymati va bahosiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishga, ularning ustuvorlarini belgilab olishga, ish haqi miqdorini tartibga solishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan xususiyatlarni belgilash imkonini beradi.

6. Ish beruvchi va ishlovchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlari buzilishi sabablarini aniqlash. Bu ko'proq ijtimoiy-sosiologik so'rovnomalar va xodimlarni

hisobga olish bo'limlari ma'lumotlari vositasida aniqlanadi. Shuningdek, bu mehnat munosabatlarining ijtimoiy shart-sharoitlariga aniqlik kiritishga yordam beradi. Bunda ishlovchilar manfaatini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari faoliyatining rolini oshirish chora-tadbirlariga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

7. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlari va bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini ifodalovchi jamlangan ko'rsatkichlar dinamikasi. Bu aholini ish bilan ta'minlash faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri institusional vositalar orqali ta'sir ko'rsatishning samaradorligini baholash uchun zarurdir. Qishloq aholisini ish bilan bandligini ta'minlash o'z-o'zicha amal qilmay, balki ishsizlik va bandlik jarayonlariga davlatning faol aralashuvini taqozo etadi.